



TALABALARNING GRAMMATIK BILIMINI BAHOLASHDA TESTDAN FOYDALANISH

Boymirzayev Akbarali Mingboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida katta o‘qituvchisi

E-mail: aliboymirza1614@gmail.com

UDK: 371.26:811.512.1'367

<https://orcid.org/0009-0001-0620-8553>

E-mail: turdalievashakhnoza84@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371287>

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarining filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili, o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning grammatik bilimlarini baholashda testlardan foydalanishning ahamiyati, ularning samaradorligi, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Testologiyaning nazariy jihatlarini, ilmiy adabiyotlar asosida olib borilgan tadqiqotlar va baholash metodikasi tavsiflanadi hamda test topshiriqlarining shakllari va ularni tuzishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan. Shuningdek, grammatik kompetensiyani aniqlashga qaratilgan testlarning afzalliklari, ularni ta'lim jarayonida qo'llash tajribalari tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv talabalar bilimni aniqlashda aniq va ishonchli mezon sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: testologiya, baholash usullari, test metodologiyasi, nazariy tahlil, lingvistik kompetensiya, ochiq va yopiq testlar.

Abstract:

This article analyzes the significance, effectiveness, advantages, and limitations of using tests to assess grammar knowledge among students studying Uzbek Philology and Uzbek Language and Literature in higher education institutions. It discusses the theoretical foundations of testology, presents research conducted based on scientific literature, and describes assessment methods. Various types of test tasks and important considerations in their design are also explored. In addition, the benefits of grammar-focused tests and their practical application in the educational process are evaluated. This approach is considered a reliable and objective criterion for measuring students' grammar competence.

Keywords: testology, assessment methods, test methodology, theoretical analysis, linguistic competence, open and closed tests

Аннотация:

В статье анализируется значение, эффективность, достоинства и недостатки использования тестов для оценки грамматических знаний студентов, обучающихся по направлениям "Узбекская филология" и "Узбекский язык и литература" в высших учебных заведениях. Рассматриваются теоретические основы тестологии, описываются исследования, проведённые на основе научной литературы, и методика оценки. Также освещаются формы тестовых заданий и важные аспекты, которые следует учитывать при их составлении. Кроме того, анализируются преимущества грамматически ориентированных тестов и опыт их применения в образовательном

процессе. Такой подход рассматривается как надёжный и объективный критерий оценки грамматической компетенции студентов.

Ключевые слова: тестология, методы оценки, методология тестирования, теоретический анализ, лингвистическая компетенция, открытые и закрытые тесты

Zamonaviy ta'lim tizimida grammatik bilimlarni baholashda testlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Negaki talaba tomonidan o'zlashtirilgan grammatik ma'lumotlar ko'lami, tashkil etilayotgan dars jarayonlarining yutuq va kamchiliklari, amalda qo'llanilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalarining talabga nechog'lik javob bera olishi kabi qator masalalar o'z yechimini kutayotgan muammolardandir.

Testologiya bugungi kunda ta'lim jarayonida keng qo'llanilib, talabalar bilim darajasini tez va aniq baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Talaba bilimni baholash orqali nafaqat talaba, balki mavjud muhitning ham saviyasini baholash imkoni tug'iladi. Mavjud ta'limiy muammolarga yechim topishda ko'pgina usullar qatori grammatik testlardan foydalanish ham muhim.

Ushbu maqola grammatik bilimlarni test orqali baholashning samaradorligi, afzallik va kamchiliklarini tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Testologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, testlarni to'g'ri tuzish va ulardan maqsadli foydalanish bilimlarni baholashda yuqori natijalar beradi. Masalan, B. Bloomning "Taxonomy of Educational Objectives" asarida baholashning turli darajalari keltirilgan bo'lib, bunda grammatik bilimlarni o'lchash uchun testlar muhim vosita sifatida ta'riflanadi [1, 46]. Shuningdek, J. Brownning "Testing in Language Programs" kitobida lingvistik bilimlarni baholashning psixologik va pedagogik asoslari yoritilgan. Mazkur manbada ta'kidlanishicha, testlar talabalarining bilimni muntazam ravishda tekshirib borish, shuningdek, ta'lim dasturining sifatini baholash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ammo ba'zan malaka (proficiency) va diagnostik testlarning natijasi talabalarda jiddiy xavotir uyg'otishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilar test natijalariga asoslangan qarorlarni mas'uliyat bilan qabul qilishlari lozim [2, 21].

O'zbek tilida grammatik bilimlarni baholash bo'yicha muayyan tadqiqot ishi mavjud emas, ammo ayrim manba va maqolalarda testlarning afzalliklari, baholash mezonlari va ularni talabalarining imkoniyatlariga moslashtirish muhimligi qayd etilgan. Xususan, Komil Jalilovning "Baholash nazariyasi asoslari" metodik qo'llanmasida testologiya va pedagogik o'lchovlar fanining asosiy tushunchalari, tamoyillari va qonuniyatlari izchil bayon qilingan. Ushbu asarda baholash mezonlariga alohida e'tibor qaratiladi. Muallifning fikricha, baholash jarayoni ma'lum bir maqsadni ko'zlab o'tkaziladi. Testdagi topshiriqlar soni, ularning tuzilishi, baholash mezonlari aynan baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bir maqsad uchun yaratilgan test boshqa bir maqsad uchun to'g'ri kelmasligi mumkin. [3, 18]

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, grammatik bilimlarni baholashda testlarning samaradorligi faqatgina testning mazmuni va tuzilishiga emas, balki ularni qo'llash uslubiga ham bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning quyidagi metodlaridan foydalanildi:

Nazariy tahlil: Grammatik bilimlarni baholashga oid ilmiy adabiyotlar o'rganildi.

Eksperiment: O'zbek tili grammatikasini o'rgatuvchi testlar talabalar orasida sinovdan o'tkazildi.

So'rovnoma: Talabalarning test jarayoniga bo'lgan munosabati va testlarning samaradorligi to'g'risida ma'lumot yig'ildi.

Tadqiqot Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida tahsil olayotgan 100 nafar talaba o'rtasida o'tkazildi. Testlar uch xil: yopiq testlar, ochiq testlar va moslashtirish testlari asosida tuzildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida grammatik bilimni baholashda testlarning quyidagi afzalliklari aniqlangan:

1. Testlar talabalar bilim darajasini aniq ko'rsatdi.

2. Test natijalari qisqa vaqt ichida umumlashtirildi.

2. Testlar yozma ish yoki og'zaki imtihonlarga qaraganda xolisroq baholash imkoniyatini berdi.

Ma'lumki, grammatik topshiriqlar lingvistik (fonetik, leksik, morofologik, sintaktik, uslubiy) va nutqiy kompetensiyalarni (o'qish, yozish, eshitish, gapirish) aniqlashga yordam beradi. Lingvistik kompetensiyalarni aniqlashda ko'plab test tiplarini ko'rsatish mumkin. Jumladan, quyidagi test topshirig'ini grammatik tahlil asosida bajarish talab etiladi:

Berilgan she'riy parchaning leksik tahlili to'g'ri ko'rsatilmagan javobni aniqlang.

Bo'ldi, yig'lamayman, bo'ldi – kulmayman,

Yuragingni ortiq etmayman bezor.

O'zimdan boshqani xafa qilmayman,

O'zimdan boshqaga bermayman ozor.

Kimlarning ko'ngliga qarab kun ko'rdim,

Yalinib bormayman Baxtning yoniga.

Kulib baxtsizlarga xalaqit berdim,

Yig'lab baxtlilarning tegdim joniga.

A) O'zaro ma'nodosh fe'llar qatnashgan.

B) O'zaro zid ma'noli fe'llar qatnashgan.

C) O'zaro paronim ot va fe'l qatnashgan.

D) O'zaro zid ma'noli sifatlar qatnashgan.

Mazkur topshiriqni bajarishda leksik sath bo'yicha egallangan keng nazariy bilimlar muhim. Ya'ni paronimiya, antonimiya va sinonimiya kabi hodisalarni tahlil qila olish ko'nikmasi yordamida kontekst to'la-to'kis tushunilishi va talab etilgan javob topilishi mumkin. Parchadagi zid ma'noli fe'llarni (yig'lamayman – kulmayman), ma'nodosh fe'llarni (xafa qilmayman - ozor bermayman), shuningdek, zid ma'noli sifatlarni (baxtsizlar – baxtlilar) ilg'ay olgan talaba "to'g'ri ko'rsatilmagan" javob C ekanini aniq topa oladi.

Yana bir misolga e'tiborimizni qaratamiz:

Har uchala parchada ham ishtirok etgan fe'l shakllarini aniqlang.

I. "So'rab-so'rab Makkani topgan ekan", – deymiz-u, uzoq manzillarni ko'zlaymiz.

II. "Qo'rqib yashagandan qo'rqmay o'lgan yaxshi!" – deb kurashgandir bobolar.

III. Sochimga oq tushdi, qorga cho'mdi bosh, O'ttiz beshga qarab ketdi, mana, yosh.

- 1) buyruq maylidagi fe'l;
 - 2) ravishdosh shaklidagi fe'l;
 - 3) o'tgan zamon fe'li;
 - 4) III shaxsdagi fe'l;
 - 5) yasama fe'l;
 - 6) o'timli fe'l
- A) 1, 3, 5 B) 3, 4 C) 2, 6 D) 2, 3, 4

Mazkur test topshirig'i murakkab savollar sirasiga mansub bo'lib, talabaning fe'l bo'yicha qay darajada ma'lumotga ega ekanini (lingvistik kompetensiya) ochiq ko'rsata olishi mumkin. Negaki bu topshiriq fe'l zamoni, fe'lning vazifadosh shakllari, o'timli-o'timsizlik, fe'l derivatsiyasi, fe'l mayllari (modallik) kabi bir qator masalalarni qamrab olgan. Xususan, III jumlada qatnashgan "qarab" ko'makchisini bir qarashda kuchli bilim egasi ham nazardan qochirishi mumkin. Chunki bu birlik fe'l doirasidan tashqarida, ya'ni yordamchi so'zlarga mansub birlik. Bu kabi topshiriqlar test topshiruvchilarning grammatik bilimlarini chuqur tekshirishga yordam beradi.

Eksperimentda havola qilingan ochiq (variantsiz) testlar bo'yicha ham bir qancha xulosalar olindi. Quyidagi misollarga e'tibor qilamiz:

1. Gapda qaysi qo'shimcha qo'llanishi bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?

Toshkentdagi Olimpiya shaharchasi qurilishi o'z vaqtida yakunlanmasligi sababli yoshlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlari mezbonligi O'zbekistondan olib, Bahraynga topshirildi.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

2. Berilgan gapda ajratib ko'rsatilgan birlik turini aniqlang?

Shuncha yelib-yugurib, bir nimalarga erishish uchun juda ko'p energiya sarflabman; rostini aytganda, yashashni ham yig'ishtirib qo'ygan ekanman.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

Dastlabki savolda jumlada qo'llangan yoki qo'llanishi lozim bo'lgan qo'shimcha bilan bog'liq uslubiy xatolik nazarda tutilgan. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida ba'zi talabalarning -maslik qo'shimchasini xato sifatida belgilashi shuni ko'rsatadiki, test tahlili jarayonida grammatik bilimlarning o'zigina yetarli emas. O'zbek tilida erkin so'zlasha oladigan har qanday inson konteskt bilan tanishar ekan, ongli ravishda uning leksik va grammatik tarkibiga ham e'tibor qaratishi tabiiy hol. *O'zbekiston olib...* nutqiy parchasi so'zlovchi yoki o'quvchining nutqida grammatik ma'no bilan bog'liq shubha uyg'otadi. Chunki jumla majhul nisbatdagi formani talab qiladi. Ya'ni nimadir *kimdandir ol[in]jib, kimgadir topshiriladi.*

Keyingi ochiq savolda ostiga chizilgan birlik turini aniqlash talab etiladi. Ishtirokchilarning aksari o'z javobida **kirish bo'lak**, **kiritma gap**, **ajratilgan bo'lak** kabi javoblarni yozgan. To'g'ri javob: **kirish bo'lak**. Mazkur savol talabalarning sintaktik tahlil bo'yicha egallangan bilimlarini sinovdan o'tkazishda qo'l keladi.

Shu bilan birga, eksperiment jarayonida ba'zi kamchiliklar ham kuzatildi:

1. Testlar ba'zan yuzaki bilimni baholaydi, talabanning ijodkorlik darajasini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi.

2. Talabalarning testga haddan tashqari bog'lanishi ularning boshqa baholash usullariga qiziqishini kamaytiradi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yopiq testlar talabalarning bilimni tez va samarali baholashda eng foydali usul bo'lib chiqdi. Ochiq testlar esa talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini aniqlashda afzal bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Grammatik bilimlarni test orqali baholash samarali vosita bo'lsa-da, uning muvaffaqiyati testning to'g'ri tuzilishiga bog'liq.

Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Testlarni tuzishda grammatik mavzularni qamrab oluvchi turli xil shakllardan foydalanish lozim (yopiq, ochiq, moslashtirish). Bir xillikka asoslangan testlar orqali grammatik bilimni aniqlash imkonsiz ekani oydinlashdi. Farqli shakldagi testlar ham diqqatni tortadi, ham test bajaruvchi imkoniyatini to'laroq ifoda etadi.

2. Test savollari talabalar bilimni chuqurroq o'lchashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunda shunchaki qaysidir bir shaklning "nimaligi" bilan bog'liq topshiriq emas, balki kontekstda muayyan birlikning qanday vazifada qo'llangani bilan bog'liq test topshiriqlari muhim ekani oydinlashadi.

3. Talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ochiq va kompleks testlarning ulushini oshirish zarur. Chunki bir necha javoblardan iborat testlar mavjud bir variantni tanlash asosida amalga oshiriladi, bunda talaba bilimi sinalsa-da, uning ijodiy imkoniyatlari ochilmay qoladi. Ko'p hollarda taxminiy (yoki tavakkalchilik asosida) belgilangan javob ham mos kelishi mumkin. Javobga talaba tomonidan yozma belgilanadigan test topshiriqlari esa mavjud bilimni tahlil qilish asosida kechadi. Kompleks test turida esa bitta topshiriq orqali ko'p jihatdagi til ko'nikmalarini o'lchash imkoni bor.

4. Zamonaviy raqamli platformalarda testlarni avtomatlashtirish va natijalarni tahlil qilish tizimlarini joriy etish kerak. Bu – test jarayoniga inson omilining aralashuvini kamaytirishning eng yaxshi usuli. Natijalar avtomatik hisoblanganda xato hisoblashlar va subyektivlik kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, testlar orqali talabalar grammatik bilimni baholash samarali va xolis usul bo'lib, ularni rivojlantirish va takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

1. Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956. – 207 b.
2. Brown, J. D. Testing in Language Programs. – New Jersey: Prentice Hall Regents, 1996. – 336 b.
3. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2020, – B. 252.
4. Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г., Жумабоева Ф.А. Олий ўқув юртларида ўқитишнинг замонавий усуллари. –Т.: 2002. – 192 б.
5. Аванесов В.С. Современные методы обучения и тестового контроля знаний. – Владивосток, 1999. -125 с.



6. Нуриддинов Б., Ҳайдаров Б. ва бошқ. Баҳолаш методлари. –Т.: УЗБ-1737 ОТБ лойиҳаси,
2003. -156 б.